



O‘QUVCHILARNING NUTQINI O‘STIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.

*Samarqand davlat pedagogika
instituti Pedagogika fakulteti
Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim
nazariyasi kafedراسي assistenti*

Saydulloyeva Shoxsanam

shoxsanamsaydulloyeva94@gmail.com

*Samarqand davlat pedagogika
instituti Pedagogika fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi*

Nurmamatova Munisa Orif qizi.

Nurmamatovamunisa577@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarning nutqini o‘stirish jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlashi hamda erkin muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Maqolada interfaol metodlarning mazmun-mohiyati, ularning nutq rivojiga ta’siri hamda amaliy qo‘llash yo‘llari tahlil etilgan. Xususan, “aqliy hujum”, munozara, rolli o‘yinlar, klaster kabi usullarning dars jarayonida qo‘llanishi o‘quvchilar faolligini oshirishi, nutq boyligini kengaytirishi va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Shuningdek, interfaol metodlar orqali hamkorlikda o‘qitish muhitini yaratish, o‘quvchilarda ijodiy tafakkur va nutq madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol metodlar, kommunikativ kompetensiya, og‘zaki nutq, yozma nutq, muloqot ko‘nikmalari, faol o‘qitish usullari, o‘quvchi faolligi,



hamkorlikda o‘qitish, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur, nutq madaniyati, didaktik o‘yinlar, refleksiya.

O‘quvchilarning nutqini o‘stirishda interfaol metodlardan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Nutq – bu shaxsning fikrlash darajasi, dunyoqarashi va ijtimoiy faolligining yaqqol ko‘zgidir. Ayniqsa boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini shakllantirish kelgusidaki bilim olish jarayoniga mustahkam zamin yaratadi. Shu sababli zamonaviy ta’limda interfaol metodlardan foydalanish nutq rivojiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Interfaol so‘zi ingliz tilidagi “interactive” so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘zaro ta’sir qiluvchi”, “ikki yoki bir nechta tomonning faol ishtiroki asosida amalga oshuvchi” degan ma’noni anglatadi. Interfaol metodlar o‘quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Bunday metodlar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga va muloqotga kirishishga o‘rgatadi. Natijada o‘quvchining lug‘at boyligi kengayadi, gap tuzish ko‘nikmalari shakllanadi. Nutqini rivojlantirishda eng samarali interfaol metodlardan biri – " Aqliy hujum " metodini misol qilib olsak bo‘ladi. Ushbu metod orqali o‘quvchilar berilgan mavzu yuzasidan tezkor fikr bildiradilar. Har bir o‘quvchi o‘z fikrini aytishga harakat qiladi, bu esa nutqiy faollikni oshiradi. Muhim jihati shundaki, bu jarayonda xatodan qo‘rqmaslik muhiti yaratiladi. Bolalarning grammatik rivojlanishi boshqarishni pedagog eng avvalo ham bolaning o‘zi bilan (dialog shaklida), ham boshqa bolalar bilan birgalikdagi muloqot faoliyati vositasida amalga oshirishi lozim.

“Bolalarga bir turdagi tuzilmalardan foydalanmagan holda so‘zlarning to‘g‘ri tartibini qo‘llashni o‘rganishda yordam beradigan mashqlarga alohida e’tiborni qaratish zarur. Didaktik o‘yinlar va grammatik mazmundagi mashqlar bolalarning tilga oid o‘yinlarini, ularning grammatika sohasidagi faolligini rag‘batlantirishning



muhim vositasidir. Pedagog bolalarga soʻz birikmasini oʻylab koʻrish, soʻngra gapda soʻzlarni bir – biri bilan toʻgʻri bogʻlash qobiliyatini oʻrgatishi zarur"[1]

Interfaol metodlarning yana bir afzalligi – oʻquvchilarda tinglash madaniyatini ham shakllantirishdir. Chunki samarali muloqot faqatgina gapirish emas, balki boshqani tinglashni ham talab qiladi. Darsda savol – javob, munozara, taqdimotlar tashkil etilishi nutqiy kompetensiyani har tomonlama rivojlantiradi. Shuningdek, rolli oʻyinlar oʻquvchilarning nutqini tabiiy sharoitda rivojlantirish imkonini beradi. Oʻyin jarayonida oʻquvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarni ifodalaydi, dialog quradi, his – tuygʻularini nutq orqali ifodalaydi. Bu usul ayniqs uyatchan oʻquvchilarni faollashtirishda samarali hisoblanadi.

“Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof – muhit bilan tanishtirish, balki uni umumiy ruhiy rivojlantirish uchun ham zarur. Oilada bola nutqini oʻstirishdan maqsad ogʻzaki nutqini adabiy til meʼyorlariga muvofiq holda egallashi, faol nutqqa kirishishini taʼminlashdan iborat. Farzand nutqini shakllantirish va rivojlantirishda ota – ona oʻz oldiga quyidagi vazifalarni qoʻygani maʼqul.:

- farzandida soʻzlash odobini tarbiyalash;
- lugʻat boyligini shakllantirish, boyitish, mustahkamlash va faollashtirish;
- nutqni grammatik jihatdan shakllantirish va rivojlantirish;
- ravon nutqni takomillashtirish;
- badiiy asarlar bilan tanishtirish;
- savod oʻrganishga tayyorlash”. [2]

Interfaol metodlar oʻquvchini taʼlim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Anʼ anaviy darslarda oʻqituvchi asosiy nutq egasi boʻlsa, interfaol yondashuvda oʻquvchi markaziy oʻringa chiqadi. Bu metodlar oʻquvchilarni



mustaqil fikrlashga, o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda bayon etishga, bahs – munozarada ishtirok etishga undaydi. Natijada o'quvchilarda nutq madaniyati, mantiqiy izchillik va erkin fikr bildirish ko'nikmalari shakllanadi. O'quvchilarni nutqini rivojlantirishda aytib o'tganimizdek " Aqliy hujum ", " Klaster " kabi interfaol metodlar alohida ahamiyatga ega. Masalan, aqliy hukum metodi o'quvchilarning tezkor fikrlashini va og'zaki nutq faolligini kuchaytiradi. Rolli o'yinlar esa o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirib, muloqot madaniyatini rivojlantirish. Bahs – munozara metodida o'quvchilar o'z fikrini dalillar bilan himoya qilishni o'rganadilar, bu esa nutqning mantiqiyligini va aniqliligini ta'minlaydi.

Nutqni o'stirishda interfaol metodlardan samarali foydalanish uchun o'qituvchi darsni puxta rivojlantirishi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olishi zarur. Savollar ochiq va fikrlashga undovchi bo'lishi, topshiriqlar esa o'quvchini gapirishga majbur qiladigan tarzda tuzilishi lozim. Shundagina interfaol metodlar o'quvchining nutqiy rivojlanishiga real pedagogik ta'sir ko'rsatadi.

Nutqni rivojlantirish ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u o'quvchilarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Nutq orqali o'quvchi o'z fikrini ifodalaydi, savol beradi, muloqotga kirishadi va bilim almashadi. Boshlang'ich sinflarda nutqni rivojlantirish ayniqsa muhim, chunki bu davrda til boyligi, grammatik tuzilish va muloqot ko'nikmalarini shakllanadi. O'quvchilar nutqini rivojlanishida bir qator interfaol metodlar samarali bo'lishini ta'kidlab o'tdik va mana shu metodlar haqida qisqacha mazmunini yoritam.

CRITICAL THINKING. Tanqidiy fikrlash (Critical Thinking) – bu ma'lumotni shunchaki qabul qilmasdan, uni obyektiv tahlil qilish, shubha ostiga olish va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Bu metod insonni hissiyotlarga yoki stereotiplarga berilmasdan, faktlarga tayanib qaror qabul qilishga o'rgatadi.



Tanqidiy fikrlashning asosiy tamoyillari

Ushbu metod quyidagi muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Skeptitsizm (Shubhalanish): Har qanday ma'lumotni haqiqat deb qabul qilishdan oldin uning manbasi va asosiligidini tekshirish.
2. Obyektivlik: Shaxsiy qarashlar va his-tuyg'ularni chetga surib, vaziyatga chetdan baho berish.
3. Mantiqiy tahlil: Ma'lumotlar orasidagi bog'liqlikni aniqlash va ziddiyatlarni topish.
4. Xulosa chiqarish: To'plangan faktlar asosida oqilona va dalillangan qarorga kelish.

Skarabey texnologiyasi. Skarabey texnologiyasi — bu ta'lim jarayonida o'quvchilarning fikrlash, mantiqiy bog'liqlikni aniqlash va xotirasini rivojlantirishga qaratilgan interfaol pedagogik metoddir. Ushbu metod o'quvchilarga biror muammoni hal qilishda o'z fikrlarini erkin va ochiq ifodalash, mustaqil bilim olish va uni baholash imkonini beradi.

Skarabey metodi asosida assotsiatsiya (mantiqiy bog'liqlik) yotadi. Uning yordamida mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar va ular orasidagi aloqalar aniqlanadi, murakkab jarayonlar yengillashtiruvchi chizma va shakllar (grafik organayzerlar) orqali tasvirlanadi, olingan bilimlarni mustahkamlash va tartibga solish amalga oshiriladi.

Ushbu texnologiyadan darsning turli bosqichlarida foydalanish mumkin, ya'ni dars boshida: O'quvchilarning mavjud bilimlarini faollashtirish uchun; mavzu davomida: Yangi tushunchalarni chuqurroq anglash va tahlil qilish uchun; dars yakunida: Olingan bilimlarni xulosalash va tizimlashtirish uchun.



Ushbu metod Ijodiy izlanish, Jamoaviy ishlash va Shaxsiy rivojlanish kabi afzalliklariga ega. O'quvchida faol izlanish va fikriy tajriba o'tkazish ko'nikmasini shakllantiradi. Jamoaviy ishlash orqali o'zgalar fikriga hurmat va hamkorlikda ishlash mahoratini oshiradi.

FSMU metodi — bu munozarali mavzular bo'yicha o'z fikrini asoslash, dalillar keltirish va xulosa chiqarishga o'rgatuvchi interfaol metoddir. Bu metod ayniqsa tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda juda samarali hisoblanadi.

Metodning nomi 4 ta bosqichning bosh harflaridan olingan:

F — Fikr: O'z fikringizni aniq va qisqa bayon qilasiz. ("Men shunday hisoblayman...", "Mening fikrimcha...").

S — Sabab: Fikringizni tasdiqlovchi asosiy sababni ko'rsatasiz. ("Chunki...", "Buning sababi shundaki...").

M — Misol: Sababingizni isbotlovchi aniq hayotiy misol yoki fakt keltirasiz. ("Bunga misol qilib...", "Masalan...").

U — Umumlashtirish: Fikringizni yakunlab, xulosa chiqarasiz. ("Shuning uchun ham...", "Xulosa qilib aytganda...").

Metod mantiqiy izchillik, isbotlash mahorati va nutq madaniyati kabi xususiyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

SINKVEYN. metodi qisqa, mazmunli ifoda qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu usul o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mana shunday metodlar o'quvchilar nutqini rivojlantirishda samarali yordam beradi.

Nutqda fikr shakllantiradi, shu bilan birga, fikr nutqini yaratadi. Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til



materiali bo‘lmasa, fikrni ifodalab berib bo‘lmaydi. Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof izchil, mantiqiy bo‘lishini ta’minlaydi. Til egallash shu tilning fonetikasining, lug‘at, sostavini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrini takomillashtirish uchun, tafakkurni o‘stirish uchun shart- sharoit hozirlaydi. Bilimlar, faktlar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o‘rganishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Nutqdan o‘quvchini fikriy rivojining asosiy o‘lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O‘quvchilarning barcha predmetlaridan materialni o‘zlashtirish va umumiy aqliy rivojlanishi haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni bola o‘z nutqida qanday bayon eta olishiga qaratiladi. O‘quvchilarning nutqini o‘stirish ta’lim jarayonining eng muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Nutq bu nafaqat fikrni ifodalash vositasi, balki shaxsning tafakkuri, dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va ma’naviy kamolotini belgilovchi asosiy omildir. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim bosqichidanoq o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Interfaol metodlardan foydalanish esa ushbu jarayonni samarali, qiziqarli va natijador tashkil etish imkonini beradi. Interfaol metodlar o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Ular orqali o‘quvchilar mustaqil fikrlash, o‘z nuqtai nazarini asoslab berish, boshqalar fikrini tinglash va tahlil qilish, muloqot madaniyatiga rioya qilish ko‘nikmalarini egallaydilar. Ayniqsa, bahs-munozara, aqliy hujum, klaster, rolli o‘yinlar, kichik guruhlarda ishlash kabi metodlar o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, ravon va mantiqiy nutq tuzish, fikrni izchil bayon etish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, interfaol metodlar ta’lim jarayonida psixologik qulay muhit yaratadi. O‘quvchi o‘z fikrini erkin ifodalashga, xatodan qo‘rqmasdan ishtirok etishga o‘rganadi. Bu esa uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Nutqi rivojlangan o‘quvchi esa boshqa fanlarni o‘zlashtirishda ham yuqori natijalarga erishadi, chunki u tushunish, tahlil qilish va bayon etish jarayonlarida faol bo‘ladi. Bundan tashqari, interfaol metodlar o‘quvchilarda ijodkorlikni, mustaqil qaror qabul



qilishni, jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa zamonaviy ta’lim talablariga to‘liq mos keladi. Chunki bugungi kunda jamiyatga faqat bilimli emas, balki muloqotga kirisha oladigan, o‘z fikrini aniq va ravon ifodalaydigan, ijtimoiy faol shaxslar zarur. Demak, o‘quvchilarning nutqini o‘stirishda interfaol metodlardan foydalanish pedagogik jihatdan asoslangan, amaliy jihatdan samarali va metodik nuqtai nazardan dolzarb yo‘nalishdir. Ushbu metodlarni dars jarayonida tizimli va maqsadga muvofiq qo‘llash o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini yuksaltirishga, ta’lim sifatini oshirishga hamda barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi, ularning fikrlash doirasini kengaytiradi va kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib shakllanishiga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. Barkamol fayz media, T.: 2018-y. 432 b.
2. Saidvaqqosova U.T. O‘quvchilar nutqini o‘stirish metodikasi. // Yangi O‘zbekistonning umidli yoshlari 1(3) –son
3. www.ziyouz.uz